

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.I.Zokirov, B.B.Axmedov

Optik xususiyatlari o'zgartirishga ega bo'lgan yuqori temeperaturali CdTe kvant nuqtalari sintezi

5

KIMYO

N.N.Mamatkulov, D.X.Muxammadjonovna

M-tolil xlorasetat asosida M-tolil-4-metilfenoksiasetat sintez usuli

10

Sh.X.Karimov

Tabiiy manbalardan xitin ajratib olishning delipidlash bosqichi tahlili

16

I.Y.Yakubov, K.Kh.Rashidova, N.T.Kattayev, Kh.I.Akbarov

Structural and morphological study of bimetallic phosphide Ni-Cu-P

20

И.Ю.Якубов, К.Х.Рашидова, Н.Т.Каттаев, Х.И.Акбаров

Синтез и свойства электрокатализатора биметаллического фосфида

Ni-Cu-P, предназначенного для электролиза воды

26

S.A.Karimova, M.Y.Imomova, Y.G.Abduganiyev

Rubus cesus L o'simligi ildizi va poyasi tarkibidagi vitaminlarni tahlil qilish

30

M.M.Tojiboyev, Y.G.Abduganiyev, M.Y.Imomova

Equisetum ramosissimum, equisetum arvensis va convolvulus arvensis o'simliklari asosida

olingan "As-arvens" surtmasining farmakologik xususiyatlari

37

X.N.Abdikunduzov

Mahalliy uzum navlari bargi va urug'i tarkibidagi flavonoidlarning sifat va miqdor analizi

42

X.N.Abdikunduzov

Uzumning Pino noir navi tarkibidagi aminokislotalarning sifat va miqdoriy analizi

47

X.N.Abdikunduzov

Mahalliy uzum navlarining urug'i va bargi tarkibidagi uglevodlarning miqdor analizi

51

S.Aripova, I.J.Jalolov, U.R.Maraimova

R.refracta va *R.hybrida* o'simliklari aminokislota va flavonoid tarkibini o'rganish

55

M.Y.Ismoilov, X.T.Tolipov

Helba va Helma o'simliklari urug'i tarkibidagi uglevodlar miqdorini aniqlash

60

A.X.Turdiboyev, Y.G.Abduganiyev, M.Y.Imomova

Tol o'simligidan tayyorlangan aralashmalarni antioksidant faolligini aniqlash

68

BIOLOGIYA

M.P.Yuldasheva, A.E.To'lqinov

Janubiy Farg'ona kanali algoflorasining 2023-2024-yillarda mavsumiy rivojlanishi

72

S.A.Omonova

Vizildoq qo'ng'izlar (Coleoptera, Carabidae) ning morfologik va ekologik xususiyatlari

76

X.Z.To'ychiyeva

Farg'ona vodiysi suv havzalari baliqlarining ektoparazitlari

81

Sh.K.Abduraxmonov

Maktabgacha tarbiya yoshi (3-7)dagilarning anatomo-fiziologik xususiyatlari

84

F.N.Mingboev, J.G.Raximov, M.V.Obidov

Mikrosuvotlarini o'stirish uchun ishlataladigan ozuqa muhitlarining tulari va ularning

tayyorlash tartibi

89

Sh.X.Karimov

Ayrim xasharotlardan xitin ajratib olishda suvda eruvchan moddalardan tozalash

bosqichining tahlili

93

M.R.Shermatov, E.A.Botirov, O.I.Qayumova, M.M.Mukhammedov

The impact of global climate change on the distribution and population dynamics of

epidopterans: the case of the mulberry moth (*Glyphodes pyloalis* walker, 1859)

97



**UZUMNING PINO NOIR NAVI TARKIBIDAGI AMINOKISLOTALARNING SIFAT VA
MIQDORIY ANALIZI**

**КАЧЕСТВЕННЫЙ И КОЛИЧЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АМИНОКИСЛОТ В СОРТЕ
ВИНОГРАДА ПИНО НУАР**

**QUALITATIVE AND QUANTITATIVE ANALYSIS OF AMINO ACIDS IN THE PINO NOIR
GRAPE VARIETY**

Abdikunduzov Xikmatillo Nuritdin o'g'li 

Farg'onan davlat universiteti, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Annotatsiya

Maqolada uzum bargi tarkibidagi aminokislotalarning sifat va miqdori analizi yuqorqi samarali suyuqlik xromatogrammasi yordamida aniqlangan natijalar keltirilgan bo'lib, aniqlangan aminokislotalarning umumiyyi miqdori, eng ko'p uchraydigan aminokislotalar tahilini keltirilgan. Uzum bargi tarkibidagi aminokislotalar yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasiga yordamida aniqlangan bo'lib, Aminokislotalarini identifikasiya qilish Agilent Technologies 1200 xromatografida 75x4,6 mm Discovery HS C18 ustunida amalga oshirildi.

Аннотация

В статье представлены результаты качественного и количественного анализа аминокислот в виноградных листьях, определенных с помощью высокочастотной жидкостной хроматографии (ВЭЖХ). Приведены общая сумма выявленных аминокислот и анализ наиболее часто встречающихся аминокислот. Аминокислоты в виноградных листьях были идентифицированы с использованием ВЭЖХ, идентификация проводилась на хроматографе Agilent Technologies 1200 с использованием колонки 75x4,6 мм Discovery HS C18.

Abstract

The article presents the results of the qualitative and quantitative analysis of the amino acids in grape leaves, determined using high-performance liquid chromatography (HPLC). The total amount of identified amino acids and the analysis of the most commonly occurring amino acids are provided. The amino acids in grape leaves were identified using HPLC, with identification performed on an Agilent Technologies 1200 chromatograph, using a 75x4.6 mm Discovery HS C18 column.

Kalit so'zlar: uzum, barg, aminokislot, YuSSX, tadqiqot, analiz, ekstrakt

Ключевые слова: виноград, лист, аминокислота, ВЭЖХ, исследование, анализ, экстракт

Key words: grape, leaf, amino acid, HPLC, research, analysis, extract

KIRISH

Dunyo bo'ylab yetishtiriladigan uzumning asosiy qismi ya'nı 83% vino ishlab chiqarish uchun, 12% yangi vaqtida istemol qilish uchun, qolgan 5% quritib mayz qilish uchun foydalilanildi [1]. Bizning tadqiqotlarimiz yetishtirilayotgan uzum o'simligining vino ishlab chiqarishga mo'ljallangan pino noir navi bargi tarkibidagi aminokislotalarni yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasiga yordamida sifat va miqdori analiz qilishga qaratilgan bo'lib, zamonaviy fizik tadqiqot usullaridan foydalilanigan. Ma'lumki uzum bargi foydali biologik aktiv moddlarga boy hisoblanib, xalqimiz tomonidan erta bahorda barg qismidan turli ozuq ovqat mahsulotlari tayyorlanadi hamda istemol qilinadi. Tadqiqotlarimiz davomida uzum urug'i tarkibida barcha oqsil tuzuvchi aminokislotalar mavjud ekanligi aniqlandi. Aniqlangan aminokislotalarning miqdori analizlari jadval hamda diogrammalarda tahlil qilindi. Bunda eng ko'p uchraydigan aminokislotlar glutamin (0,489805 mg/gr) va leytsin (0,359601 mg/gr) ekanligi aniqlandi.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODOLOGIYA

Turkiyada yetishtiriladigan *V. viniferana* beshtarangli ("Horozkarasi", "Okuzgozu", "Muscato Hamburg", "Alphonse Lavallee", "Alicante Bouschet" va ikkita oqrangli ("Narince" va "Razaki") navlari urug'ining oqsil tarkibi aniqlangan. Rangli navlarda 7,48-12,05% va oq rangli


navlarda 10,27-10,34% miqdorda oqsil aniqlangan[2]. Bolgariyada yetishtiriladigan *V. vinifera*ning "Bolgar"va "Super ran Bolgar" oq rangli hamda "Mavroud"va "Shiroka melnishka loza" qizil rangli navlari urug'i oqsil miqdori aniqlangan bo'lib, tegishli ravishda 6,9; 6,3; 8,9 va 8,5% ni tashkil etgan[3]. "Alphonse Lavallé", "Ada Karası", "Sauvignon blanc", "Sangiovese", "Papaz Karası", "Narince", "Gamay", "Semillon", "Cinsaut", "Chardonnay" va "Cabernet Sauvignon" navlari urug'i oqsil miqdori aniqlangan. Urug' tarkibida quruq massaga nisbatan 7,51-13,28% miqdorda oqsil aniqlangan[4]. Yog'sizlangan uzum urug'i tarkibida 10,76% oqsil aniqlangan[5]. Boshqa bir tadqiqotda uzum urug'i tarkibida 6,93 g/100 g oqsil aniqlangan[6]. Oqsil miqdorini aniqlash bilan bir qatorda aminokislota tarkibini o'rganishga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan. Uzum urug'i oqsili tarkibida asparagin kislota(8,42%); alanin(3,79%); arginin(8,55%); glutamin kislota(32,76%); fenilalanin(4,56%); glitsin(9,34%); gistidin(2,13%); lizin(2,33%); leytsin(5,55%); izoleytsin(3,43); metionin(1,40%); prolin(3,38%); serin(3,93%); sistein (0,94 %); tirozin(3,11%); treonin(2,07%) va valin(4,30%) aminokislotlari aniqlangan[7].

NATIJA VA MUHOKAMA

Uzum bargi tarkibidagi aminokislotalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi xuzuridagi Bioorganik kimyo institutida yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi yordamida aniqlangan. Aminokislota hosilalarining HPLC tahlili. FTK (feniltiokarbamail) aminokislota hosilalari sintezi Stiven A., Koen Daviel usuliga muvofiq amalga oshirildi.

Aminokislotalarini identifikasiya qilish Agilent Technologies 1200 xromatografida 75x4,6 mm Discovery HS C18 ustunida amalga oshirildi. A eritmasi: 0,14 M CH₃COONa + 0,05% TEA pH 6,4, B: CH₃CN. Oqim tezligi 1,2 ml/min, yutilish 269 nm. Gradient %B/min: 1-6%/0-2,5min; 6-30%/2,51-40min; 30-60%/40,1-45 min; 60-60%/45,1-50min; 60-0%/50,1-55min.

Uzumning bargi qismining aminokislotalarning YuSSX analiz natijalari



Uzumning bargi qismining aminokislota miqdori

1-jadval

| No | Aminokislotalar | Aminokislotalar konsentratsiyasi, mg/gr | No | Aminokislotalar | Aminokislotalar konsentratsiyasi, mg/gr |
|----|-------------------|---|-----|-----------------|---|
| 1. | Asparagin kislota | 0,088476 | 12. | Tirozin | 0,140509 |
| 2. | Glutamin kislota | 0,181156 | 13. | Valin | 0,09599 |

KIMYO

| | | | | | |
|-----|-----------|----------|-----|-------------|----------------|
| 3. | Serin | 0,078391 | 14. | Metionin | 0,149297 |
| 4. | Glitsin | 0,12279 | 15. | Izoleytsin | 0,14476 |
| 5. | Asparagin | 0,147632 | 16. | Leytsin | 0,359601 |
| 6. | Glutamin | 0,489805 | 17. | Gistidin | 0,066415 |
| 7. | Sistein | 0,082431 | 18. | Triptofan | 0,078176 |
| 8. | Treonin | 0,168525 | 19. | Fenilalanin | 0,125412 |
| 9. | Arginin | 0,069433 | 20. | Lizin HCl | 0,0813 |
| 10. | Alanin | 0,213522 | 21. | | |
| 11. | Prolin | 0,065715 | | | |
| | | | | | Jami: 2,949338 |

AMINOKISLOTLARNING MIQDOR ANALIZI



Uzumning barg qismi aminokislotalari miqdori YuSSX usulida aminokislotalarning standart namunalari bilan soilishtrish orqali tadqiq qilindi. Uzum urug'i tarkibida barcha oqsil tuzuvchi aminokislotalar mavjud ekanligi aniqlandi (1-jadval). Aminokislotalarning aniqlangan ja'mi miqdori 2,949 mg/g ni tashkil etdi. Eng yuqori miqdorda glutamin (0,489805 mg/g) va eng kam miqdorda prolin (0,065715 mg/g) aniqlandi. Glutamin miqdorining prolinga nisbati 7,5/1 ni tashkil etadi. Glutamin aminokislotalar ja'mi miqdorining deyarli 20% ni tashkil etdi. Eng yuqori miqdorga ega glutamin, leytsin va alanin miqdori 1,0629 mg/ga teng bo'lib, aminokislotalarning umumiyligi miqdoriga nisbatan 39% ni tashkil etdi. Uzum o'simligining barg qismidagi ja'mi almashinmaydigan aminokislotalar aniqlandi. Almashinmaydigan aminokislotalarning umumiyligi miqdori 1,2 mg/g ni bo'lib, umumiyligi miqdorga nisbatan 40,7% ni tashkil etdi. Eng yuqori miqdorda izoleytsin (0,14476 mg/g) va eng kam miqdorda tirptofan (0,078176 mg/g) aniqlandi.

XULOSA.

Xulosa o'rniда uzum bargi oqsil manbai hisoblangan aminokislotalarga boy ekanligini ta'kidlab o'tish joyizdir. Uzum bargi tarkibidagi eng ko'p miqdorda uchraydigan glutaminning ahamiyati organizm uchun muhim biologik aktivlikka ega hisoblanib, organizmda moddalar almashinuvida, natriyli tuzidan ozoq ovqat mahsulotlarini ta'mini oshirishda, shu bilan birga ba'zi asab kasalliklarini davolashda ishlataladigan preparatlar tayyorlashda ishlataladi. Bundan tashqari uzum bargi ekstrakti qon tomir kasalliklarini davolash va oldini olishda ishlataladigan preparatlar tayyorlashda ham ishlataladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Temirov. Uzumchilik. Toshkent 2005-yil.
2. Tangolar S.G., Ozoğul Y., Tangolar S., Torun A. Evaluation of fatty acid profiles and mineral content of grape seed oil of some grape genotypes. *Int J Food Sci Nutr.* 2009.60(1).P.32-39.
3. Ovcharova T., Zlatanov M., Dimitrova R. Chemical composition of seeds of four Bulgarian grape varieties. *Ciência Téc. Vitiv.* 2016. 31(1). P. 31-40.
4. Al JuhaimiF., Geçgel Ü., Gülcü M., Hamurcu M., Özcan M. M.S.Bioactive properties, fatty acid composition and mineral contents of grape seed and oils.*Afr. J. Enol. Vitic.* 2017.38(1). P. 103-108.
5. Baca-Bocanegra B., Nogales-Bueno J., Hernández-Hierro J.M., Heredia F.J. Optimization of protein extraction of oenological interest from grape seed meal using design of experiments and response surface methodology. *Foods.* 2021.Vol.10(1).P.79.
6. Felhi S., Baccouch N., Ben Salah H., Smaoui S., Allouche N., Gharsallah N., Kadri A. Nutritional constituents, phytochemical profiles,*in vitro* antioxidant and antimicrobial properties, and gas chromatography-mass spectrometry analysis of various solvent extracts from grape seeds (*Vitis vinifera*L.). *Food Sci Biotechnol.* 2016. 25(6). P.1537-1544.
7. Baca-Bocanegra B., Nogales-Bueno J., Hernández-Hierro J.M., Heredia F.J. Optimization of protein extraction of oenological interest from grape seed meal using design of experiments and response surface methodology. *Foods.* 2021.Vol.10(1).P.79.